

## **Agentlikda yil yakunlariga bag‘ishlangan Hay‘at yig‘ilishi**

O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligida joriy yilning 20-yanvar kuni Agentlikning 2015-yil ish yakunlariga bag‘ishlangan Hay‘at yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishni Agentlik boshlig‘i V. Ismoilov ochib, Hay‘at majlisining kun tartibini e‘lon qilgandan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 15-yanvarda o‘tkazilgan 2015-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan kengaytirilgan majlisi haqida atroflicha ma‘lumot berib, unda ilgari surilgan masalalardan kelib chiqqan holda sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar to‘g‘risida batafsil to‘xtalib o‘tdi.

Shundan so‘ng, so‘z navbati Agentlik boshlig‘ining o‘rinbosari Sh. Shovahobovga berilib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi masalalari kompleksining joriy yil 11-yanvarda o‘tkazilgan 2015-yil ish yakunlariga bag‘ishlangan yig‘ilishiga doir axboroti tinglandi.

Ma‘ruzachi 2015-yil ish yakunlari haqida ma‘lumot berarkan, O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi 2015-yil davomida o‘z ish faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 16-yanvarda o‘tkazilgan “2014 yilda respublikani ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risida”gi majlisi va ushbu majlisda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan qilingan ma‘ruzadan kelib chiqqan holda Agentlikning 2015-yilga mo‘ljallangan sohaviy chora-tadbirlar “Dastur”da belgilangan vazifalarni bajarilishi bo‘yicha ishlar olib borilganligi, ularda ilgari surilgan masalalardan kelib chiqib, sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar to‘g‘risida ham batafsil to‘xtalib o‘tdi.

- 2015-yil davomida respublika bo‘yicha jami 133 ta ochiq tender o‘tkazilgan bo‘lib, ularda 1116 ta yo‘lovchi tashish yo‘nalishlari joylashtirildi. Shundan 205 ta shahar ichidagi yo‘nalishlarini joylashtirish bo‘yicha 33 ta tender, 799 ta shahar atrofi va 47 ta shaharlararo-viloyatlar ichidagi yo‘nalishlarni joylashtirish bo‘yicha 92 ta tender, 65 ta shaharlararo-viloyatlararo yo‘nalishlarni joylashtirish bo‘yicha 8 ta tender o‘tkazilgan. Bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda, — dedi Sh. Shovahobov o‘z ma‘ruzasida.

— 2015-yil davomida tashuvchilar tomonidan Samarqand avtomobil zavodida ishlab chiqarilgan “ISUZU” rusumli avtobuslardan Qashqadaryo viloyatida 78 ta, Toshkent viloyatida 64 ta, Sirdaryoda 59 ta, Samarqandda 47 ta, Buxoroda 35 ta, Xorazmda 27 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 21 ta, Surxondaryoda 19 ta, Farg‘onada 18 ta, Toshkent shahri va Andijonda 13 tadan, Jizzaxda 11 ta va Navoiy viloyatida 8 ta jami 413 ta yangi avtobuslar lizing va bank kreditlari asosida sotib olinib, shahar va shahar atrofi yo‘nalishlarida xizmat ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga yil davomida tashuvchilar tomonidan tijorat asosida foydalanish maqsadida 587 ta yuk avtomobili, 85 ta mikroavtobus va 445 ta (shundan 138 tasi “Damas” rusumli) yengil avtomobillari sotib olindi.

Hisobot davrida 65 ta yo‘lovchi tashish yo‘nalishlari tashkil etilib, ushbu yo‘nalishlarda xizmat ko‘rsatish uchun jami 524 ta, shu jumladan 129 ta avtobus, 14 ta mikroavtobus va 381 ta “Damas” rusumli avtotransport vositalari birlashtirildi. Xozirgi kunda respublikaning eng chekka qishloqlarida ham yo‘lovchi tashish transporti xizmati yetib bormagan joy qolmadi. 2015-yil davomida Agentlik va uning hududiy bo‘limlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarga 2785 ta litsenziya va 182190 ta litsenziya varaqalari berildi. 2016-yilning 1 yanvar holatiga litsenziyalangan avtomobillar soni 90024 tani tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18-fevraldagi “Keksalarni e‘zozlash yili” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2302-sonli qaroriga muvofiq, Agentlikning 2015-yil 2-martdagi 48/1-sonli buyrug‘i qabul qilinib, “Keksalarni e‘zozlash yili” Davlat dasturi ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan bo‘lib, bu borada 2015-yilda Agentlikda qilingan ishlar borasida ham ma‘ruzachi to‘xtalib o‘tdi.

Agentlikning 2015-yil yakunlariga bag‘ishlangan Hay‘at yig‘ilishida Jizzax va Surxondaryo viloyatlari hududiy bo‘limlari ish faoliyatini maqsadli hamda Samarqand va Buxoro viloyatlari hududiy bo‘limlari ishini nazorat tartibida o‘rganish natijalari to‘g‘risida litsenziyalash, nazorat va tashishlar xavfsizligini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i A.Isaevning ma‘lumoti tinglandi.

Shu kuni yig‘ilishda Agentlikning barcha hududiy bo‘limlari boshliqlarining 2015-yil ish yakunlari tug‘risidagi hisobotlari ham tahlil qilinib, mazkur bo‘limlarning erishgan yutuqlari e‘tirof etilishi barobarida joylarda yo‘l qo‘yilayotgan ayrim xato va kamchiliklar, boy berilgan imkoniyatlar atroflicha muhokama etilib, kelgusida ularni bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar xususida atroflicha fikr-mulohazalar bildirildi.

Yig'ilishda Agentlik hay'ati a'zolari, bo'lim va xizmatlari, hududiy bo'limlar va tarmoq tashkilotlarining rahbarlari ishtirok etishdi.